**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
__________________
2024 yil "___" ________

# CHET TILLARNI O'QITISHNING INTEGRALLASHGAN KURSI O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta'lim |
| Ta'lim sohasi: | 110000 – Ta'lim |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60110900 - Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili) |

**Chirchiq – 2024**

CamScanner yordamida skanerlangan

| Fan/modul kodi<br>CHTIK15609 | O‘quv yili<br>2026-2027 | Semestr<br>5-6 | ECTS - Kreditlar<br>5-4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Tanlov | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Chet tillarni o’qitishning integrallashgan kursi** | **150** | **120** | **270** |

2\. **I. Fanning mazmuni.**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarni chet tili bo‘yicha o‘quv materiallarini tanqidiy tahlil qilish va ularni baholashga, xorijiy o‘quv materiallarini mahalliy sharoit va milliy tizimga moslashtirish, yangilarini yarata olish, chet tili darslarini to‘g‘ri rejalashtirish va dars rejalarini baholashga hamda har xil guruhlarda chet tili samarali o‘qitilishini tashkil etishga o‘rgatish.

**Fanning vazifasi** – talabalarni chet tili o‘rganish va o‘qitish metodlari bilan tanishtirish hamda ulardan amalda foydalana olish, grammatika, fonetika va leksikani kommunikativ yondashuv asosida o‘qitishga o‘rgatish xamda tilni o‘qitishda kontekstga muvofiq ravishda talabalarning turli yondashuvlardan mosini tanlab, tatbiq eta olishlarini ta’minlash, chet tillarni o‘qitish usul va metodlarining tarixiy bosqichlari bilan tanishtirish.

**II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)**

**II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiritish tavsiya etiladi:**

- **gapirish ko’nikmasi:** og’zaki va yozma nutq, dialogik va monologik nutq, gapirish ko’nikmasi uchun mashq va vazifalar, gapirish uchun motivatsiya yaratish;
- **tinglab tushunish ko‘nikmasi:** tinglab tushunish matnlari, monologik va dialogik tinglab tushunish matnlari, tinglash va ko’rish matnlari, global tinglash, selektiv tinglash, detallashtirib tinglash
- **yozish ko‘nikmasi:** yozish jarayoni fazalari, yozishda xatolarni tekshirish, yozma mashqlar, yozma vazifalar, kollaborativ yozish
- **o’qish ko’nikmasi:** autentik matnlarni o’qib tushunish, o’qishdan oldingi mashqlar. matnlarni o’qishga tayyorlanish, o’qib tushunish vaqtida bajariladigan mashqlar, o’qib tushunishdan keying mashqlar
- **so’z boyligi, leksika:** so’z boyligi bilan ishlash fazalari, lug’atlar bilan ishlash, til leksikasini mashq qilish va takrorlash
- **grammatika:** grammatikani vizuallasjtirish, grammatikani mashq qilish,

CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | konteksta grammatikani mashq qilish, grammatikada didaktik mashqlar<br>- **fonetika:** artikulyatsiya asoslari, darsda fonetikani mashq qilish, unlilarni mashq qilish, undoshlarni mashq qilish,<br>- **mamlakatshunoslik va madaniyatlararo muloqot:** darsda madaniyat tushunchasi, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot uchun matnlardan foydalanish<br>- **darsda interaktivlik, ijtimoiy ish shakllari:** darsda ijtimoiy ish shakllari, frontal dars shakli, guruh bo'lish ishlash, juft bo'lish ishlash, yakka tartibda ishlash<br>- **geteregon guruhlar bilan ishlash:** turli yoshdagi til o'rganuvchilari, til o'rganuvchilarida motivatsiya, „stationenlernen" metodi, loyihalash metodi<br>- **til o'rganish strategiyalari va avtonom o'qish:** metakognitiv strategiyalar, kognitiv strategiyalar, strategiyalarni qo'llash, avtonom o'qish strategiyalari<br>- **darsda media va ta'lim vositalari:** elektron ta'lim vositalari, darsda kompyuterdan foydalanish, darsda rasmlardan foydalanish, darsda musiqa va raqsdan foydalanish<br>- **darsni rejalashtirish:** darsni rejalashtirishda ta'lim maqsadi, dars fazalari, darsning texnologik xaritasi, darsliklarni saralash va ular bilan ishlash<br>- **test va imtihonlar:** standartlashtirilgan testlar haqida, yopiq vazifalar, ochoq vazifalar, yarim ochiq vazifalar, til portfoliolari<br><br>**III. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**<br>Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar yakka holda, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydilar. O'qitish metodikasi amaliy vazifalar, dolzarb maqolalar muhokamasi, turli janrdagi matnlarni tahlil qilish, internet matnlari bilan ishlash, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini baholovchi testlar va mustaqil o'qishga yo'naltirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish |

CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | muddatlari to'liq ochib beriladi.<br><br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>- Til o'rganuvchining kundaligini yaratish.<br>- Maqola bo'yicha hisobot.<br>- Chet til o'rganuvchisini kuzatish orqali hisobot yozish.<br>- Tahliliy insho.<br>- Zamonaviy metodlar.<br>- Leksikani o'qitishda kommunikativ metodlar.<br>- Grammatikani o'qitishda kommunikativ metodlar.<br>- Fonologiyani o'qitishda kommunikativ metodlar.<br>- Til o'rganuvchilarning qobiliyatini hisobga olish.<br>- O'qituvchining dars davomidagi vazifalari.<br>- Sillabus yaratishning prinsiplari.<br>- Chet tili darslarining strukturasi .<br>- Darslarda vaqtni taqsimlash va ketma ketlik.<br>- Darslarda o'zaro muloqotga kirishish.<br>- Darslarda qo'shimcha materiallardan foydalanish.<br>- Madaniyatlararo muloqotni chet tili darslaridagi ahamiyati.<br>- Darsni boshqarish.<br>- O'zaro dars kuzatishning ahamiyati.<br>- Darsni tadqiq etish asosida xulosa yozish.<br>- Tayyor materiallarni o'rganish va uni maxsus yo'naltirilgan kurslarga moslash.<br>- Tayyor testlarni o'rganib ular asosida xulosa yozish.<br>- Baholash mezonini ishlab chiqish.<br>- Til o'rganishning to'rt ko'nikmasiga asoslangan testlar yaratish.<br>- Testlarni aprobatsiyadan o'tkazish. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>•O'rganilayotgan asosiy chet tilini umumyevropa standartlariga ko'ra C1 darajada o'zlashtirishi; til o'rganish va o'qitish metodlari, yondashuvlar va usullar haqida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi; grammatika, fonetika va leksikani kommunikativ yondashuv asosida o'qitishning afzalliklari xaqida ***tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)***<br>•Chet tilda gapirish ko'nimalarini rivojlantirish kursini o'zlashtirgan talaba:<br>- so'zlashish ko'nikmalarini axborot qabul qilish va etkazish uchun amalda qo'llay olish;<br>- so'zlashish ko'nikmalarini qo'llash borasida mahoratlarini oshirib, o'z |

CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | kamchiliklarini aniqlash va ularni kommunikativ topshiriqlar vositasida tuzatish;<br>• Til o‘rganayotgan o‘quvchi va talabalarning xatolarini tuzata olishi;<br>integrallashgan til ko‘nikmalarini amalda qo‘llash (ma’no-mazmun asosida o‘rganish, topshiriqlar asosida o‘rganish, loyihalar bilan ishlash); o‘qish, tinglash, yozish va gapirish ko‘nikmalarini integrallashgan tarzda o‘qitish uslub va predmetlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)***<br>Chet til o‘qitishning xalqaro tajribalari fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar, internet ma’lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o‘quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo‘yicha ma’lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta’lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni echish, disskusiya, rolli o‘yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o‘qitilishi amalga oshiriladi va o‘quvchilarni baholay olish to‘g‘risida malakalariga ega bo‘lishi kabi ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak (malaka)*** |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;<br>• kommunikativ metodlar;<br>• kognitiv metodlar; |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **VIII. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Hans-Jürgen Hantschel, Michaela Brinitzer. DaF unterrichten Basiswissen Didaktik Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Klett Verlag. 2016<br>2. Baier Gabi, Roland Dittrich. Goethe-Zertifikat C1. Corlnelsen Verlag. Berlin. 2009.<br>**IX. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz |

CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.<br>2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021. – 458 b.<br>3. Ute Koithan u.a. Aspekte B1 Langenscheidt Verlag. Berlin. Deutschland. 2007.<br>4. Hermann Funk, Christina Kuhn, Dirk Skiba, Dorothea Spaniel-Weise, Rainer E. Wicke. Aufgaben, Übungen, Interaktion. Goethe-Institut, München. 2014<br>5. Michael Schart, Michael Legutke. Lehrkompetenz und Unterrichtsgestaltung. Klett-Langenscheidt. 2012<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.gov.uz/edu/–O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti<br>2. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti.<br>3. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi hukumati portali<br>4. www.cspu.uz- CHDPU rasmiy internet sayti<br>5. https://www.youtube.com/@ibratfarzandlari - "Ibrat farzandlari" platformasi sayti (youtube kanali)<br>6. https://t.me/ibratfarzandlari – "Ibrat farzandlari" platformasi sayti (telegram kanali)<br>7. www.klett-sprachen.de/linie1 - Germaniyaning Klett nashriyoti rasmiy sayti<br>8. http://ziyonet.uz - ZiyoNET axborot ta'lim tarmog'ining rasmiy sayti<br>9. www.hueber.de/aspekte- Germaniyaning Hueber nashriyoti rasmiy sayti<br>10. www.deutsch.unterricht.de- Nemis tili o'qituvchilari qo'shimcha ma'lumotlar yuklab olishlari uchun rasmiy sayt |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil "29" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul va muallif:**<br>**Z.I.Shabidinova**– CHDPU, Nemis tili kafedrasi o'qituvchisi<br>**Z.I. Sanakulov-** CHDPU, Nemis tili kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |

CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**S.X.Nazarov** - Nizomiy nomidagi TDPU Yevropa tillari kafedrasi mudiri, f.f.f.dok. (PhD), dots.<br>**Z.A.Shirnazarova** - CHDPU Nemis tili kafedrasi v.b. dotsenti, p.f.f.dok. (PhD) |

CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan